O‘t o‘chiruvchi imtiyozli pensiyaga chiqadigan bo‘ldi



Nafaqat bilim, aql-zakovat, balki jasorat, jismoniy tayyorgarlik, dovyuraklik, kerak bo‘lsa, o‘z hayotini garovga qo‘yish kabi fidoyilikni talab qiladigan o‘t o‘chiruvchilik kasbini tanlashga hammaning ham yuragi dov bermaydi. Olovga tik boqib, sog‘lig‘ini, o‘z jonini xatarga qo‘yayotgan ushbu kasb fidoyilarini e’zozlashimiz, qadrlashimiz lozim.

Yurtimizda shu kabi sharafli kasb egalari uchun qator imtiyozlar mavjud. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi “Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 250-qarori bilan tasdiqlangan 2-ro‘yxatning 1-qismi XXV bo‘limiga ko‘ra, qutqaruvchilar umumiy belgilangan yoshni o‘n yilga kamaytirgan holda imtiyozli pensiya olish huquqiga ega. Ammo umrini o‘t o‘chiruvchilik kasbiga bag‘ishlagan I. Islomov ayrim tushunmovchilik va rasmiyatchiliklar sabab imtiyozli pensiya olish uchun sarson bo‘layotgan edi.

1971-yil 3-aprelda Yangibozor tumanida tug‘ilgan I. Islomov Urganch tumanlararo sudiga ariza bilan murojaat qilgan. Arizada 2002-yil 24-iyundan 2020-yil 3-yanvargacha Xorazm viloyati IIB Yong‘in xavfsizligi tizimida yong‘in o‘chiruvchi (qutqaruvchi) lavozimida ishlagani va umumiy ish staji 20 yildan ortiqligi, imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beradigan maxsus staji 10 yildan ortiqni tashkil etishini, 2022-yil 17-mayda Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Yangibozor tuman bo‘limiga ariza bilan imtiyozli shartlardagi yoshga doir pensiya tayinlashni so‘rab murojaat qilganini, bo‘limning javob xatida imtiyozli pensiya olishga huquqi yo‘qligi ma’lum qilinganligini, vaholanki, o‘zi ishlab kelayotgan o‘t o‘chiruvchi (qutqaruvchi) lavozimi imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi zararli kasb hisoblanishini keltirib o‘tgan.

Shularni inobatga olgan holda da’vogar suddan 2002-yil 24-iyundan 2020-yil 3-yanvargacha viloyat IIB Yong‘in xavfsizligi boshqarmasi tizimida imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi zararli kasbda ishlaganlik faktini belgilab berishni so‘ragan.

Sud arizachining tushuntirishi va muzokara so‘zlarini eshitib, ish materiallarini sudda aniqlangan holatlar bilan birga taqqoslab ko‘rib, quyidagi to‘xtamga keladi.

Sudda aniqlangan holatlarga va ish hujjatlariga qaraganda, I. Islomov 2002-yil 24-iyundan 2022-yil 1-martgacha viloyati IIB Yong‘in xavfsizligi tizimida ishlagan, hozir Yangibozor tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi 23-yong‘in-qutqaruv qismi boshlig‘i lavozimida ishlab kelmoqda.

Oliy sud plenumining 2017-yil 29-noyabrdagi 44-qarori 5-bandiga ko‘ra, ish o‘rinlarining attestatsiya qilinganligi to‘g‘risidagi hujjatlar mavjud bo‘lmaganda, o‘ta zararli va o‘ta xavfli mehnat sharoitlarida ishlaganlik faktini belgilash haqidagi ishlar sudda ko‘rilishi mumkin.

Shunga binoan sudlar zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik faktini belgilash haqidagi ishlarni ko‘rish vaqtida, ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilmagani xodimning aybi emasligini inobatga olgan holda, buzilgan huquqni tiklash uchun barcha lozim bo‘lgan choralarni ko‘rib, shu jumladan, boshqa davrlar uchun mehnat sharoitlari bo‘yicha ish o‘rinlarining attestatsiyasi o‘tkazilganini tekshirishi va uning natijasidan kelib chiqishi lozim.

Mazkur qarorning 21-bandida pensiya jamg‘armasi tomonidan fuqaroning fikriga ko‘ra muddatidan ilgari pensiya tayinlash huquqini beradigan stajga qo‘shilishi lozim bo‘lgan davrni bunday stajga qo‘shish rad etilgan hollarda, nazarda tutmoq kerakki, da’vogar tomonidan bajarilayotgan ishlarning, u egallab turgan lavozimning, mavjud kasbning muddatidan ilgari pensiya tayinlash huquqini beradigan ishlar, lavozimlar, kasblarga o‘xshashligi masalasi sud majlisida aniqlangan har bir ishning muayyan holatlaridan kelib chiqqan holda (da’vogar tomonidan bajarilayotgan ish-

larning xarakteri va o‘ziga xosligi, amalga oshirish sharoitlari, egallab turgan lavozimi bo‘yicha yoki mavjud kasb bo‘yicha u tomonidan bajarilayotgan funksional vazifalar, shuningdek, u ishlagan korxona, muassasa, tashkilotlar faoliyati yo‘nalishlari va hakazo) aniqlanadi.

Prezidentning 2019-yil 10-apreldagi “Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Yong‘in xavfsizligi bosh boshqarmasi, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalaridagi davlat yong‘in xavfsizligi bo‘limi tugatilib, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimiga o‘tkazilgan.

Shunga ko‘ra, I. Islomov 2020-yil 3-yanvardan Yangibozor tumani favqulodda vaziyatlar bo‘limi 23-yong‘in-qutqaruv qismining boshlig‘i lavozimiga o‘tkazilgan va “qutqaruvchi” maqomi berilgan.

Qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalarining mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlovchilar jumlasidan bo‘lgan qutqaruvchilari umumiy belgilangan yosh o‘n yilga kamaytirilgan holda imtiyozli pensiya olish huquqiga ega.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunning 9-moddasiga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro‘yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar, chunonchi:

umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 2-ro‘yxati.

Ushbu qonunning 11-moddasiga ko‘ra, oxirgi ish joyidan qat’i nazar, quyidagilar ushbu qonunning 7-moddasida belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirgan holda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar:

a) yerosti ishlarida, mehnat sharoiti o‘ta zararli va o‘ta og‘ir ishlarda to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar (2-ro‘yxat, I qism):

erkaklar – ish staji kamida 20 yil bo‘lib, bundan kamida 10 yili ko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda.



Da’vogar I. Islomovning umumiy ish staji 36 yil, maxsus ish staji 19 yil 10 oy 7 kunni tashkil qiladi.

Sud aniqlangan holatlar va qonun talablaridan kelib chiqib, da’vogarning yuridik faktni belgilash haqidagi arizasini qanoatlantirishni lozim topadi.

Sudning sa’y-harakati, dalil va hujjatlarning sinchiklab o‘rganilishi natijasida adolat qaror topdi. Umrini zararli kasbga bag‘ishlab, bebaho ne’mat hisoblangan sog‘lig‘ini garovga qo‘yib, insonlar hayotini qutqarishdek sharafli kasbda faoliyat yuritgan yurtdoshimiz imtiyozli nafaqa tayinlanishiga erishdi.

G‘ayrat MATYAKUBOV,
fuqarolik ishlari bo‘yicha
Urganch tumanlararo sudi sudyasi





Profilaktika inspektori faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash va uning huquqiy bilimlarini oshirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” asarida profilaktika inspektorlarining asosiy vazifasi haqida quyidagi fikrlar bildirilgan: “Bugungi kunda profilaktika inspektorining asosiy vazifasi – faqat sodir etilgan jinoyatlarni hisobga olish, ularning oqibati bilan kurashish emas, balki huquqbuzarliklarning sabab va omillarni chuqur tahlil qilish asosida ularning barvaqt oldini olishga qaratilgan choralarni o‘z hududida amalga oshirishdan iborat[1].

Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-farmonining 1-ilovasida keltirilgan 16-maqsadda “Jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish”, 17-maqsadda “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish” masalalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Fuqarolarning tinchligi va xavfsizligini ta’minlashga mas’ul profilaktika inspektorlari huquqiy maqomi 2016-yil 16-sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunida o‘z aksini topdi.

Mazkur qonunga muvofiq ichki ishlar organlarining tayanch punktlari faoliyatni profilaktika katta inspektorlari, inspektorlaridan va ularning jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilaridan iborat tarkibda amalga oshiradi. Profilaktika inspektorlari xalq deputatlari tuman (shahar) kengashining qarori bilan lavozimga tasdiqlanadi. Profilaktika inspektorlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga belgilangan tartibda hisobotlar taqdim etadi.

Prezidentning 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6196-farmonida Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o‘z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil qilinishi belgilangan.

Shuningdek, Prezidentning 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-farmonida Jamoat xavfsizligi departamentining asosiy vazifalaridan biri sifatida ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi borasidagi faoliyatini ta’minlash, profilaktik hisob va ma’muriy nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish qayd etilgan.

Profilaktika inspektorlarining bugungi qiyofasi ham amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar bilan hamohang bo‘lishini davrning o‘zi taqozo qiladi. Har qanday yangilik va zamonaviy yondashuvning asosiy maqsadi odamlarning og‘irini yengil qilishga qaratilgan.

Profilaktika inspektorining zamonga mos bo‘lishi dolzarb masalalardan biridir. Profilaktika inspektorining kasbiy kompetensiyasi mustahkam huquqiy bilim asosida shakllanishi zarur. Shu bois ularning o‘z ustida doimiy ishlashi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublika-

[1] Ш.М.Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т., 1-том. 322-бет

si jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-farmonida profilaktika inspektorlarini ularning vazifa va faoliyat yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lmagan tadbirlarga jalb qilish hamda faoliyatiga asossiz aralashish taqiqlanishi, 2024-yil 1-sentyabrdan e’tiboran Toshkent shahar ichki ishlar organlari, 2025-yil 1-sentyabrdan boshlab qolgan hududiy ichki ishlar organlari profilaktika katta inspektori lavozimlariga faqat oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan xodimlar tayinlanishi, profilaktika inspektorlari uchun Ichki ishlar vazirligi akademiyasi sirtqi ta’limiga qabul qilinadigan xodimlar umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida qabul kvotasi ajratilishi, 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab faoliyatida yuqori natijalarga erishgan Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar organlaridan ikkitadan, qolgan hududiy ichki ishlar organlaridan bittadan profilaktika inspektori departament boshlig‘i taqdimnomasiga asosan Ichki ishlar vazirligi akademiyasining sirtqi ta’limiga imtihonlarsiz qabul qilinishi hamda bepul o‘qitilishi belgilangan.

Profilaktika inspektorining professional portretini yaratish uning professional standarti, professiogrammasi, professional ramkasi, funksional kartasi, faoliyatni baholash indikatorlari, faoliyat samaradorligini diagnostika va prognoz qilish metodikasini ishlab chiqish orqali ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining yuridik yo‘nalishdagi bilimlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 23-qarorida Ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning yangi tizimini joriy etish, ichki ishlar organlarida oliy yuridik ma’lumotga ega kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni to‘laqonli qondirish, shuningdek, yangi O‘zbekiston sharoitida ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari oldida turgan muhim vazifalarning samarali amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida – 2022/2023-o‘quv yilidan bosh-



lab ichki ishlar organlarida uch yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan, kasbiga fidoyi, tashabbuskor profilaktika (katta) inspektorlarini Jamoat xavfsizligi universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti hamda yurisprudensiya sohasida bakalavriat ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lgan boshqa davlat oliy ta’lim muassasalariga (Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi hamda Davlat bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti bundan mustasno) kirish imtihonlarisiz sirtqi ta’lim shakliga o‘qishga qabul qilish tartibi joriy etildi.

Fikrimizcha, profilaktika inspektorining professional portretini yaratish uning professional standarti, professiogrammasi, professional ramkasi, funksional kartasi, faoliyatni baholash indikatorlari, faoliyat samaradorligini diagnostika va prognoz qilish metodikasini ishlab chiqish orqali ta’minlanadi.

Zamonaviy profilaktika inspektori huquqbuzarliklar oqibati bilan kurashibgina qolmay, balki uning oldini olishni ham faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilab olishi lozim. Aholi nazarida profilaktika inspektori jazolovchi davlat xizmatchisi emas, balki sodir etilishi mumkin bo‘lgan noxush hodisalarni oldindan ko‘ra oladigan va huquqbuzarlik sodir etishdan qaytaradigan yetakchi sifatida namoyon bo‘lishi zarur. Natijada aholi sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarlikning oldini olish uchun profilaktika inspektori bilan hamkorlik qilishiga erishiladi.

Bugungi kunga kelib xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuv asosida profilaktika inspektorlarida mustahkam huquqiy bilimlarni shakllantirish tizimi yaratildi. Ularda avvalo qat’iy intizom va xulq-atvor, xalq bilan muloqot qilish, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash, tizimli tahlil qilish, muammoning mohiyatini tushunish va kreativ yondashuv asosida tezkor yechim topish ko‘nikmasi shakllangani namoyon bo‘lmoqda.

FQB ma’lumotlariga ko‘ra[2], AQSHda 18 000 dan ortiq mahalliy politsiya bo‘limi mavjud. Politsiyaga juda katta vakolatlar, jumladan, kuch ishlatish vakolatlari ishonib topshirilgani sababli ular ushbu vazifalarni qonuniy va mas’uliyatli tarzda bajarishi muhimdir. Politsiyaning shaffoflik va javobgarlikni ta’minlashi kerakligi, politsiya ofitserlarining adolatli va xolis ish yuritishi, vakolatlarini suiiste’mol qilishdan saqlanishi zarurligiga muhim omillar sifatida qaraladi. Jamoatchilik ishonchi va hamkorligi bunda asosiy elementlardan hisoblanadi, samarali politsiya faoliyati qonunlarga zid yoki noprofessional xatti-harakatlar qilganda yo‘qoladi.

Profilaktika inspektorining zamonga mos bo‘lishi dolzarb masalalardan biridir. Profilaktika inspektorining kasbiy kompetensiyasi mustahkam huquqiy bilim asosida shakllanishi zarur. Shu bois ularning o‘z ustida doimiy ishlashi talab etiladi.



Xulosa qilib aytganda profilaktika inspektori faoliyati ko‘p funksiyalidir. Uning oldida kundalik xizmatida keng ko‘lamli vazifalarni bajarish va shu bilan birgalikda aholining muammoli masalalariga huquqiy yechim topish mas’uliyati turadi. Profilaktika inspektorining xizmati bilvosita yoki bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish va boshqarishning maxsus sohasi hisoblanadi.

O‘tkir ATAJANOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi

[2] “Crime in the United States 2013.” FBI. https://www.fbi.gov/about-us/cjis/ucr/crime-in-the-u.s/2013/crime-in-the-u.s.- 2013/about-cius